


VII. ISTE'MOL BOZORI

Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 13805,0 mlrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 113,5 %ni tashkil qildi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 2069,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 195,2 %), kichik tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 3074,7 mlrd. so'mni (104,8 %), savdo faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tovar aylanmasi 8660,6 mlrd. so'mni (106,2 %) tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanishni qo'shgan holda) tarkibi, foizda (2022- yil yanvar-sentabr oylarida)




2022- yilning yanvar- sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakllari bo'yicha quyidagicha ifodalanadi.

Nodavlat mulki 13805,0 mln. so'mni umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 100,0 % ni tashkil qildi.


Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Qarshi shahri 30,8 %, Koson tumani 8%, Qamashi tumani 7,6 %, Chiroqchi tumani 7,3 % bilan yuqori ko'rsatkichlarni, Ko'kdala va Shahrisabz tumanlari mos ravishda 3,0 % hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, Muborak tumani 2,8 % ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

**Qashqadaryo viloyatida tuman va shaharlarning jami
chakana tovar aylanmasidagi ulushi, foizda**



Jumladan, 2022- yilning yanvar-sentabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,3 % ni tashkil etib, 299,4 mlrd. soʻmga yetdi yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 8,7 % oʻsish kuzatildi. Bunda jami savdo aylanmasining 94,9 % ulushi kichik tadbirkorlik subyektlari ulushiga toʻgʻri kelmoqda.

Tumanlarning umumiy ovqatlanishdagi ulushi, foizda



Umumiy ovqatlanish korxonalarini qoʻshgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 4019,0 ming soʻmni tashkil etdi. Oʻrtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori koʻrsatkichlari Qarshi shahrida (14880,5 ming soʻm), Shahrisabz shahrida (5401,9 ming soʻm), Muborak tumanida (4307,7 ming soʻm) va Chiroqchi tumanida (3 921,5 ming soʻm) kuzatildi.

Chakana tovar aylanmasi umumiy (umumiy ovqatlanishni qo‘shgan holda)

(2022- yil yanvar-sentabr)


| | <i>Jami</i> | | <i>Aholi jon boshiga</i> | |
|-----------------------------|-------------------|--|--------------------------|--|
| | <i>mlrd. so‘m</i> | <i>2021- yil yanvar-sentabrga nisbatan, % hisobida</i> | <i>ming so‘m</i> | <i>2021- yil yanvar-sentabrga nisbatan, % hisobida</i> |
| Qashqadaryo viloyati | 13 805,0 | 113,5 | 2611,3 | 107,6 |
| G‘uzor | 520,0 | 109,1 | 2 428,5 | 106,6 |
| Dehqonobod | 529,2 | 102,3 | 3 430,7 | 100,2 |
| Qamashi | 1 045,6 | 103,9 | 3 696,5 | 101,7 |
| Qarshi | 437,9 | 106,2 | 1 674,1 | 103,6 |
| Koson | 1 102,1 | 109,0 | 3 672,7 | 106,5 |
| Kitob | 744,6 | 105,3 | 2 728,2 | 103,5 |
| Mirishkor | 494,6 | 107,1 | 3 953,9 | 104,9 |
| Muborak | 391,4 | 107,3 | 4 307,7 | 105,1 |
| Nishon | 473,5 | 100,2 | 2 950,2 | 97,9 |
| Kasbi | 525,9 | 107,5 | 2 559,0 | 105,3 |
| Ko‘kdala | 411,3 | 105,3 | 2 300,5 | - |
| Chiroqchi | 1 010,0 | 108,1 | 3 921,5 | 178,1 |
| Shahrisabz | 413,0 | 105,8 | 1 806,3 | 104,1 |
| Yakkabog‘ | 681,9 | 104,8 | 2 496,9 | 102,8 |
| Qarshi sh. | 4 248,9 | 135,0 | 14 880,5 | 132,4 |
| Shahrisabz sh. | 775,1 | 106,7 | 5 401,9 | 105,1 |



Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 3243,9 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2021- yilning shu davriga nisbatan 108,2 % ga kupayish kuzatildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, 2543,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,8 % ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 78,4 %ni tashkil qilmoqda.

Qashqadaryo viloyatida hududlarning ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, foizda



Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi 122,7 % ga ko‘payib, 700,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi va umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 21,6 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi

(2022- yil yanvar-sentabr)

| | <i>mlrd. so‘m</i> | <i>2021- yil yanvar-sentabrga nisbatan, % hisobida</i> |
|-----------------------------|-------------------|--|
| Qashqadaryo viloyati | 3 243,9 | 108,2 |
| G‘uzor | 69,5 | 173,5 |
| Dehqonobod | 17,5 | 13,3 |
| Qamashi | 50,3 | 2,3 m. |
| Qarshi | 281,8 | 124,5 |
| Koson | 483,7 | 2,7 m. |
| Kitob | 120,9 | 86,8 |
| Mirishkor | 28,0 | 25,1 |
| Muborak | 34,6 | 51,4 |
| Nishon | 22,0 | 33,6 |
| Kasbi | 135,1 | 2,7 m. |
| Ko‘kdala | 12,4 | 96,9 |
| Chiroqchi | 117,7 | 141,1 |
| Shahrisabz | 46,2 | 91,0 |
| Yakkabog‘ | 73,8 | 78,4 |
| Qarshi sh. | 1 498,4 | 104,8 |
| Shahrisabz sh. | 252,0 | 85,9 |